



JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISHNING XORIJ TAJRIBALARI VA ULARNI MAMLAKATIMIZDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI

i.f.d., prof. Kuzieva Nargiza

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-8096-2928

nargiza_170975@mail.ru

Bobomuratova Manzura

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-1705-4900

m.bobomurotova@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlarning turli mamlakatlardagi tizimi va undirish mexanizmlarining solishtirma tahlili keltirilgan. Soliq stavkalari, imtiyozlar, deklaratsiya tartiblari hamda to'lov usullari bo'yicha xorijiy mamlakatlarning amaliy tajribalari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, progressiv va proporsional soliqlarning adolatli taqsimotga ta'siri hamda investitsion daromadlarga nisbatan soliqlarning o'rni muhokama qilingan. O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirishda xorijiy tajribalardan foydalanishning istiqbollari asoslangan. Maqolada daromad solig'ini yig'ish mexanizmlarining samaradorligi va adolatlilik darajasi iqtisodiy barqarorlik va byudjetga tushumlar nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy shaxslar daromad solig'i, progressiv soliq stavkasi, soliq tizimi, soliq imtiyozlari va chegirmalar, AQSh va Xitoy tajribasi, soliq deklaratsiyasi, kapital daromadga soliq, soliq siyosati, byudjet daromadlari, O'zbekiston soliq islohoti.

НАЛОГООБЛОЖЕНИЕ ДОХОДОВ ФИЗИЧЕСКИХ ЛИЦ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

д.э.н., проф. Кузиева Наргиза

Ташкентский государственный экономический университет

Бобомуратова Манзура

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье приведён сравнительный анализ систем и механизмов взимания налога на доходы физических лиц в различных странах. Рассмотрены налоговые ставки, льготы, порядок подачи деклараций и методы уплаты, а также проведён анализ социально-экономического воздействия данных аспектов. Особое внимание уделено влиянию прогрессивного и пропорционального налогообложения на справедливое распределение доходов и налогообложение инвестиционных доходов. Обоснована целесообразность использования зарубежного опыта в процессе совершенствования налоговой системы Узбекистана. В статье также рассмотрена эффективность и справедливость механизмов сбора подоходного налога с точки зрения экономической стабильности и поступлений в бюджет.

Ключевые слова: налог на доходы физических лиц, прогрессивная налоговая ставка, налоговая система, налоговые льготы и вычеты, опыт США и Китая, налоговая декларация, налог на доход от капитала, налоговая политика, доходы бюджета, налоговая реформа в Узбекистане.

TAXATION OF PERSONAL INCOME: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND PROSPECTS FOR ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN

DSc, prof. Kuzieva Nargiza

Tashkent State University of Economics

Bobomuratova Manzura

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article presents a comparative analysis of personal income tax systems and collection mechanisms in various countries. It examines tax rates, benefits, declaration procedures, and payment methods, and analyzes their socio-economic impact. Special attention is given to the influence of progressive and proportional taxation on fair income distribution, as well as the role of taxes on investment income. The article substantiates the prospects of applying international practices to improve Uzbekistan's tax system. The efficiency and fairness of personal income tax collection mechanisms are analyzed in terms of economic stability and budget revenues.*

Keywords: *personal income tax, progressive tax rate, tax system, tax benefits and deductions, US and China experience, tax declaration, capital gains tax, tax policy, budget revenues, tax reform in Uzbekistan.*

Kirish.

Jahon iqtisodiyotida global integratsiya jarayonlari, moliyaviy bozorlardagi faoliyatning kengayishi hamda davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan siyosatlar sharoitida jismoniy shaxslar daromadlarini samarali soliqqa tortish masalasi muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat byudjeti daromadlarining barqaror manbaini shakllantirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va iqtisodiy faollikni rag'batlantirishda jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliqlar asosiy moliyaviy instrumentlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi yillarda jahon mamlakatlarida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimi bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, soliq stavkalaridagi differensial yondashuvlar, imtiyozlar, ijtimoiy himoya mexanizmlari va raqamli deklaratsiya tizimlari ushbu sohadagi ilmiy izlanishlarni yanada dolzarblashtirmoqda. Soliq tizimining shaffofligi, adolatlilik va samaradorligini ta'minlash maqsadida turli davlatlar tajribasini o'rganish, ularning muvaffaqiyatli modellarini tahlil qilish O'zbekiston soliq siyosatini modernizatsiyalashda muhim qadam hisoblanadi.

Ayniqsa, AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Xitoy, Malayziya va Rossiya kabi davlatlar tajribasida joriy etilgan progressiv soliq stavkalari, kapital daromadlar uchun alohida tartib, ijtimoiy to'lovlar bilan bog'liq soliq mexanizmlari, deklaratsiya berish jarayonining raqamlashtirilishi jismoniy shaxslarning soliq intizomini oshirish hamda daromadlarni teng taqsimlashda samarali vosita sifatida baholanmoqda.

O'zbekistonda ham soliq tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati doirasida jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimini ilg'or xalqaro tajriba asosida qayta ko'rib chiqish, uning institutsional va iqtisodiy asoslarini mustahkamlash, aholi moliyaviy faolligini oshirish, shu bilan birga, davlat byudjetiga barqaror daromad tushumlarini ta'minlash dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Shu bois, mazkur tadqiqot xalqaro amaliyotdan kelib chiqqan holda milliy soliq tizimini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlarni shakllantirishni maqsad qilgan.

Adabiyotlar sharhi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishga oid ilmiy-amaliy tadqiqotlar so'nggi yillarda xalqaro moliyaviy munosabatlar va davlat byudjeti barqarorligini ta'minlash

masalalari bilan uzviy bog'liq holda keng ko'lamda o'rganilmoqda. Turli mamlakatlarda qo'llanilayotgan soliq tizimlarini taqqoslash, ularning xususiyatlari, stavkalari, imtiyozlari va yig'im mexanizmlarini chuqur tahlil qilish uchun asosiy nazariy hamda amaliy manbalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahon miqyosida tan olingan iqtisodchi olimlardan biri Musgreyvning "Public Finance in Theory and Practice" asarida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining moliyaviy qayta taqsimotdagi va ijtimoiy barqarorlikdagi o'rni teran tahlil qilingan. Muallif daromad soliqlarining progressiv shaklda tashkil etilishi orqali ijtimoiy tenglikni ta'minlash imkoniyatlari hamda uning byudjet daromadlari manbai sifatidagi rolini ilmiy asosda yoritib beradi.

Shuningdek, Stiglisning "Economics of the Public Sector" nomli tadqiqotida soliqlar vositasida iqtisodiy resurslarni samarali taqsimlash, daromad tengsizligini kamaytirish va iqtisodiy faollikni rag'batlantirish mexanizmlari keng qamrovda baholangan. Ushbu nazariy yondashuvlar xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan model va usullarni chuqur anglashga xizmat qiladi.

OECD tomonidan har yili chop etiladigan "Tax Policy Studies" to'plamlarida esa Yevropa, Amerika va Osiyo mamlakatlarida amalga oshirilayotgan soliq siyosati, xususan, jismoniy shaxslar daromadlariga nisbatan qo'llanilayotgan stavkalar, imtiyozlar, soliq yuki va deklaratsiya tizimi asosida solishtirma tahlillar keltiriladi. Ushbu hisobotlar mamlakatlar kesimida soliq tizimlarining samaradorligini baholashda muhim manba hisoblanadi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda soliq tizimida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Qo'chqorov va Ibrohimovning (2020) "O'zbekistonda soliq siyosatining modernizatsiyasi: yo'nalishlar va mexanizmlar" nomli tadqiqotida milliy soliq tizimining xalqaro mezonlar bilan taqqosli tahlili, xorijiy amaliyotni mahalliy sharoitga moslash orqali joriy etish imkoniyatlari ilmiy asosda bayon etilgan.

Mavzuning amaliy ahamiyatini oshirishda AQShning "Internal Revenue Service" (IRS) tomonidan berilgan rasmiy soliq kodeksi va shunga asoslangan 2024 yilgi daromad soliq shkalalari bo'yicha normativ ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu manbalar orqali jismoniy shaxslar uchun soliq majburiyatlari, deklaratsiya qilish tartibi va imtiyozlar tizimi haqida batafsil tasavvur hosil qilish mumkin.

Xitoyning Davlat soliq boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan "Individual Income Tax Reform Overview" (2019) hisoboti esa Xitoyda amalga oshirilgan soliq islohotlari, daromad bo'yicha progressiv stavkalar, hamda uy-joy, ta'lim va tibbiyot sarflari bo'yicha berilgan soliq imtiyozlarini tahlil qilish uchun muhim manba vazifasini bajaradi.

Yuqorida qayd etilgan manbalar jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq tizimlarini ilmiy va amaliyot jihatidan chuqur tahlil qilishda asosiy nazariy va statistik poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali mamlakatlar kesimidagi farqlar va o'xshashliklarni o'rganish, hamda O'zbekiston soliq amaliyoti uchun munosib xulosalar chiqarish mumkin.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq tizimlari turli mamlakatlarda juda xilma-xildir, lekin ko'pchilik mamlakatlarda jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq davlat daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Biroq, har bir mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlariga qarab, aniq soliq tuzilmalari va stavkalari sezilarli darajada farq qilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq odatda fuqarolar va mamlakat rezidentlari tomonidan olinadigan daromadlardan undiriladi. Bu daromadga ish haqi, investitsiya foizlari, biznes daromadlari, ijara to'lovlari va boshqa manbalar kiradi. Aksariyat hollarda soliqlar progressiv bo'ladi, ya'ni daromad qancha yuqori bo'lsa, soliq stavkasi shunchalik yuqori bo'ladi.

Turli mamlakatlarning soliq tizimlari shaxsiy daromad solig'ining turli xillarini o'z ichiga olishi mumkin, masalan, daromad solig'i, kapital daromad solig'i, mulk solig'i va boshqalar.

Ushbu soliqlarning stavkalari, shuningdek, imtiyozlar va chegirmalar mamlakatdan mamlakatga katta farq qilishi mumkin. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq hukumatlar uchun umumiy daromad manbai bo'lsa-da, ularni yig'ishning o'ziga xos mexanizmlari dunyoning turli qismlarida sezilarli darajada farq qiladi. Shaxsiy daromaddan olinadigan soliqlarning ayrim xususiyatli jihatlari quyidagilarga ajratiladi:

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliqlarning xususiyatlari

	Solika tortishda hisobga olinadigan jihatlari	Jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliqlarning xususiyatlari
1.	Daromad solig'i stavkalari	Turli mamlakatlarda turli xil daromad solig'i stavkalari bo'lishi mumkin, ular progressiv (daromad bilan ortib borayotgan) yoki proporsional. Soliq stavkalari ish haqi, kapital yoki biznesdan olinadigan daromad kabi daromad turiga qarab ham farq qilishi mumkin.
2.	Soliq imtiyozlari va chegirmalar	Xorijiy mamlakatlarda jismoniy shaxslarni soliqqa tortishda turli xil imtiyozlar va chegirmalar berish nazarda tutilgan bo'lib, bu daromadning soliqqa tortiladigan miqdorini va shuning uchun soliq majburiyatini kamaytiradi. Bunday imtiyozlarga misol qilib, bolalar uchun ajratmalar, ta'lim, tibbiy xarajatlar, xayriya va boshqalar kiradi.
3.	Soliqlarni to'lash usullari	Daromad solig'i ish haqidan ushlab qolish (to'g'ridan-to'g'ri ushlab qolish), choraklik yoki yillik soliq to'lovlari orqali to'lanishi mumkin. To'lov usullari har bir mamlakatning soliq qonunchiligiga qarab farq qilishi mumkin.
4.	Soliq deklaratsiyasi	Ko'pgina mamlakatlarda jismoniy shaxslar o'z daromadlari, chegirmalar va boshqa tegishli moliyaviy holatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadigan soliq deklaratsiyasini topshirishlari shart. Ushbu deklaratsiyalar asosida ularning soliq majburiyati aniqlanadi.
5.	Ijtimoiy soliqlar va sug'urta badallari	Ba'zi mamlakatlar nafaqat daromad solig'ini, balki ijtimoiy soliqlar va sug'urta badallarini ham undiradilar, o'z navbatida ular pensiya, sog'liqni saqlash va ishsizlik nafaqalari kabi ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish uchun ishlatiladi.
6.	Pensionerlar va investorlar uchun soliq imtiyozlari	Bir qator mamlakatlarda pensionerlar, investorlar yoki ko'chmas mulkdan daromad oluvchi shaxslar uchun maxsus soliq imtiyozlari mavjud. Bu imtiyozlar soliq stavkalarini pasaytirish yoki ayrim turdagi daromadlarni soliqqa tortishdan ozod qilishni o'z ichiga olishi mumkin.

Manba: jadval mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Bu jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlarning umumiy xususiyatlari bo'lib, har bir mamlakatning soliq tizimi o'ziga xos xususiyatlar va qoidalarga ega bo'lishi mumkin.

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i odatda ko'pgina omillarga bog'liq bo'ladi, masalan, daromad miqdori, soliq to'lovchi maqomi, soliq imtiyozlari va boshqalar.

2-jadval

Xorijiy mamlakatlarda jismoniy shaxslarning daromadlaridan undiriladigan soliqlar stavkalarining taqqoslama tahlili

Soliq turi	Mamlakatlar					
	AQSh	Buyuk Britaniya	Yaponiya	Xitoy	Malayziya	Rossiya
Mehnatdan olinadigan daromad solig'i	Progressiv, 37% gacha	Progressiv, 45% gacha	Progressiv, 45% gacha	Progressiv, 45% gacha	Progressiv, 30% gacha	Proporsional 13%
Kapital to'lovlari bo'yicha soliq	Daromadga bog'liq, 0-20%	Aktivga bog'liq, 10-28%	Tutuv muddatiga bog'liq, 15-30%	20%	Aktiv va muddatga bog'liq, 5-30%	13%
Ko'chmas mulk solig'i	Shtatga bog'liq, 0.5-2.5%	Hududga bog'liq, 0.5-2.5%	Munitsipalitetga bog'liq	Hududga bog'liq, 1-3%	Progressiv, 1% gacha	Hududga bog'liq, 0.1-2%
Tadbirkorlik faoliyatidan daromad solig'i	Federal 21%, shtatlar bo'yicha o'zgaruvchan	19%	23.2%	25%	24%	20%
Aktivlarni sotishda kapital to'lovlari bo'yicha soliq	0%, 15%, 20%	10%, 20%, 18%, 24%	20%	20%	0%	13%
Meros va hadya solig'i	18-40%	40%	10-55%	20%	Yo'q	Yo'q
Shaxsiy iste'mol solig'i	10% (savdo solig'i)	20% (QQS)	10% (iste'mol solig'i)	13% (QQS)	6% (savdo solig'i)	20% (QQS)
Ijtimoiy sug'urta soliqlari	Xodimlar uchun 6.2%, o'zini o'zi band 12.4%	Xodimlar uchun 12%, o'zini o'zi band 20%	Xodimlar uchun 14.21%, o'zini o'zi band ko'proq	Xodimlar uchun 16%, o'zini o'zi band ko'proq	Xodimlar uchun 11%, o'zini o'zi band ko'proq	Ish beruvchi va xodimlar uchun jami 30%

Manba: jadval mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Jadvalda keltirilgan tahlillar asosida turli mamlakatlardagi soliq tizimlari haqidagi umumiy tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Turli mamlakatlarda mehnatdan olinadigan daromad solig'i turlicha hisoblanadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Xitoyda bu soliqlar progressiv bo'lib, maksimal stavka 37% dan 45% gacha bo'ladi. Malayziyada esa bu stavka 30% ni tashkil etadi. Rossiyada mehnatdan olinadigan daromad solig'i 13% to'g'ri stavkasida amalga oshiriladi, bu esa kam daromadlilarning soliq yukini yengillashtiradi.

Kapital to'lovlari bo'yicha soliqlar mamlakatlarga qarab turlicha belgilab o'tilgan. AQSh va Buyuk Britaniyada bu soliqlar aktivlarga yoki daromadga bog'liq bo'lib, stavka 0% dan 28% gacha bo'lishi mumkin. Yaponiya va Xitoyda kapital to'lovlari bo'yicha soliqlar 20% atrofida

belgilab qo'yilgan. Malayziyada esa aktiv va muddatga bog'liq ravishda 5% dan 30% gacha bo'ladi. Rossiyada bu soliq 13% to'g'ri stavkada belgilangan.

Ko'chmas mulk solig'i AQSh va Buyuk Britaniyada shtat va hududga bog'liq holda amalga oshiriladi va odatda 0.5% dan 2.5% gacha bo'ladi. Yaponiyada bu soliq munitsipalitetga bog'liq ravishda belgilangan bo'lsa, Xitoyda 1% dan 3% gacha bo'lgan stavkada amalga oshiriladi. Malayziyada ko'chmas mulk solig'i progressiv bo'lib, maksimal 1% ni tashkil etadi. Rossiyada esa hududga bog'liq holda 0.1% dan 2% gacha bo'ladi.

Tadbirkorlik faoliyatidan daromad solig'i AQShda federal darajada 21% stavkada belgilangan bo'lsa, Buyuk Britaniyada bu stavka 19% ni tashkil etadi. Yaponiyada 23.2%, Xitoyda 25%, Malayziyada 24%, Rossiyada esa 20% stavkada tadbirkorlik faoliyatidan daromad solig'i belgilangan. Bu soliqlar turli mamlakatlarda turli darajadagi tadbirkorlik muhitini shakllantiradi.

Aktivlarni sotishda kapital to'lovlari bo'yicha soliqlar AQShda 0% dan 20% gacha, Buyuk Britaniyada 10% dan 24% gacha bo'ladi. Yaponiya, Xitoy va Malayziyada bu soliq 20% ni tashkil etadi. Rossiyada esa 13% stavkada belgilangan.

Meros va hadya solig'i AQShda 18% dan 40% gacha, Buyuk Britaniyada 40%, Yaponiyada 10% dan 55% gacha bo'lgan stavkada amalga oshiriladi. Xitoyda bu soliq 20% ni tashkil etadi. Malayziya va Rossiyada esa meros va hadya solig'i mavjud emas.

Shaxsiy iste'mol solig'i AQShda 10% savdo solig'i, Buyuk Britaniyada 20% QQS stavkasida belgilangan. Yaponiyada 10% iste'mol solig'i, Xitoyda 13% QQS stavkasida amalga oshiriladi. Malayziyada bu soliq 6% savdo solig'i ko'rinishida, Rossiyada esa 20% QQS stavkasida bo'ladi.

Ijtimoiy sug'urta soliqlari AQShda xodimlar uchun 6.2%, o'zini o'zi bandlar uchun 12.4% stavkada belgilangan. Buyuk Britaniyada xodimlar uchun 12%, o'zini o'zi bandlar uchun 20% ni tashkil etadi. Yaponiyada xodimlar uchun 14.21%, o'zini o'zi bandlar uchun ko'proq stavkada belgilangan. Xitoyda xodimlar uchun 16%, o'zini o'zi bandlar uchun esa ko'proq. Malayziyada xodimlar uchun 11% stavkada belgilangan, o'zini o'zi bandlar uchun esa ko'proq bo'ladi. Rossiyada esa ish beruvchi va xodimlar uchun jami 30% stavkada ijtimoiy sug'urta soliqlari belgilangan.

Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, turli mamlakatlardagi soliq tizimlari va stavkalari sezilarli darajada farq qiladi. Mamlakatlar o'z iqtisodiy va ijtimoiy siyosatlariga asosan soliq tizimlarini shakllantiradilar, bu esa fuqarolarning daromadlari va xarajatlariga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu tahlil orqali turli mamlakatlardagi soliq tizimlarini ko'rib chiqib, ularning o'zaro farqlari va umumiy xususiyatlarini aniqlash mumkin.

AQShda jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq federal darajada boshqariladi, shtat hamda mahalliy darajadagi soliqlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Federal soliqqa qo'shimcha ravishda, har bir shtatda o'z daromad solig'i tizimi mavjud bo'lib, u ish haqi solig'i, investitsion daromad solig'i va boshqa turdagi soliqlarni ham qamrab olishi mumkin. Aniq ma'lumotlar va soliq stavkalari bir qator omillarga, jumladan, oilaviy ahvol, bolalarning mavjudligi, daromad turi va boshqalarga qarab farq qilishi mumkin.

AQShda jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq federal soliq tizimi, Ichki daromad xizmati va davlat soliq agentliklari orqali yig'iladi.

1. Federal daromad solig'i. AQShda federal daromad solig'i progressiv soliq tizimi asosida undiriladi, ya'ni daromad oshgani sayin soliq stavkasi ham oshadi. Federal daromad solig'i ish haqi, investitsiya foizlari, kapital daromadlari, kredit foizlari va boshqa daromad manbalaridan olinadi.

2. Shtatlar daromad solig'i. Federal soliqdan tashqari, har bir shtat o'zining daromad solig'i tizimiga ega. Shtatlar o'zlarining soliq stavkalari, chegirmalar va imtiyozlarini belgilash huquqiga egadirlar. Ba'zi shtatlar, masalan Texas va Florida, daromad solig'ini undirmaydilar, boshqalari esa, masalan Kaliforniya va Nyu-York, yuqori stavkalarga egadirlar.

3. Shaharlar va munitsipalitetlar soliqlari. Shtat va federal soliqlardan tashqari, ba'zi shaharlar va munitsipalitetlar ham daromad solig'ini undiradilar. Ular qo'shimcha ish haqi uchun soliqni yoki mulk solig'ini ham qo'llaydilar.

Daromad solig'ini undirish mexanizmi odatda quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- Ish beruvchi to'g'ridan-to'g'ri xodimning maoshidan daromad solig'ini ushlab qoladi va uni Ichki daromad xizmati va tegishli davlat soliq organiga o'tkazadi.

- Boshqa manbalardan (masalan, investitsiyalardan) daromad oluvchi shaxslar odatda o'z daromadlari to'g'risida o'zlari hisobot berishi va soliq deklaratsiyasi tizimi orqali tegishli soliqni to'lashi shart.

- Soliq yili tugagandan so'ng (har yil 31 dekabrda tugaydi) soliq to'lovchilar o'z daromadlari, chegirmalar va boshqa moliyaviy ma'lumotlarni e'lon qiladigan soliq deklaratsiyasini (odatda federal soliqlar uchun keyingi yilning 15 apreliga qadar) topshirishlari shart. Ushbu deklaratsiyaga asoslanib, davlat agentligi qancha soliq to'lanishi yoki qaytarilishi kerakligini aniqlaydi.

AQSh soliq tizimi juda murakkab va har bir soliq to'lovchining individual sharoitlariga qarab o'zgarishi mumkin.

3-jadval

AQShda shaxsiy daromad solig'ini undirish mexanizmi

Mexanizm	Tavsif
Soliq stavkalari	Daromad va soliq to'lovchining maqomiga qarab progressiv shkala stavkalari qo'llaniladi.
Standart chegirma	Soliqqa tortiladigan daromaddan kamaytiriladigan summa: - Turmush qurmaganlar uchun- \$13,850 - Turmush qurgan va birgalikda deklaratsiya topshirganlar uchun- \$27,700 - Turmush qurgan va alohida deklaratsiya topshirganlar uchun- \$13,850 - Oila boshlig'i uchun- \$20,800.
Maxsus chegirmalar	Standart chegirma tibbiy xizmatlarga sarflangan xarajatlar, ko'chmas mulk soliqlari, ipoteka foizlari, xayriya hissalar va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.
Soliq krediti	Soliq majburiyatini to'g'ridan-to'g'ri kamaytirish: - soliq kreditlari - oiladagi bolalar soniga ko'ra chegirmalar - ta'lim uchun chegirmalar.
Alternativ minimal soliq	Yuqori daromad ega soliq to'lovchilar uchun minimal soliq majburiyatini ta'minlash maqsadida kamroq chegirmalar bilan hisoblangan qo'shimcha soliq.
Ijtimoiy sug'urta va tibbiyot	Maoshga belgilangan stavkalar: - Ijtimoiy sug'urta: \$160,200 gacha daromaddan 6.2% - Tibbiyot: chegaralanmagan daromaddan 1.45% (oiladagi daromad \$200,000 yoki birgalikda deklaratsiya \$250,000dan oshgan holda qo'shimcha 0.9%).
Kapital o'sishidan soliq	Qisqa muddatli (1 yilgacha) va uzoq muddatli (1 yildan ortiq) kapital o'sishlari uchun turli stavkalar belgilangan: - Qisqa muddatli: oddiy daromadlar bilan bir xil stavkalar - Uzoq muddatli: 0%, 15% yoki 20% daromadlilik darajasiga qarab.
Qo'shimcha soliqlar	Sof investitsiya daromadi uchun soliq (3.8%). Ushbu soliq \$200,000dan (yoki birgalikda deklaratsiya uchun \$250,000) ortiq yuqori daromadli soliq to'lovchilar uchun belgilangan.

Manba: jadval mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Taqdim etilgan jadval ma'lumotlari AQSh soliq tizimining ko'p qirraliligi, jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi o'ziga xos murakkabligi, uning turli ijtimoiy qatlamlar va iqtisodiy faoliyatlarga qanday ta'sir qilishini ko'rsatadi.

Progressiv shkala AQShda daromad miqdoriga qarab soliq yukini oshirib boradi. Bu aholining turli qatlamlariga nisbatan adolatli soliq tizimini ta'minlaydi. AQShda tibbiy xizmatlar, ko'chmas mulk soliqlari va xayriya hissalar kabi xarajatlar uchun alohida chegirmalar mavjud bo'lib, bu soliq to'lovchilarning real daromadini hisoblashga yordam beradi.

Soliq kreditlari soliq majburiyatini to'g'ridan-to'g'ri kamaytirish imkonini beradi. Masalan, bolalar uchun yoki ta'lim uchun soliq kreditlari.

Alternativ minimal soliq orqali yuqori daromadli soliq to'lovchilar uchun minimal soliq majburiyatini ta'minlaydi, bu esa soliq tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim hisoblanadi. Maoshdan olinadigan belgilangan stavkalar orqali ijtimoiy va tibbiy xizmatlar uchun moliyaviy manbalar yaratiladi.

Kapital o'sishidan soliq qisqa va uzoq muddatli kapital o'sishlari uchun turli stavkalar mavjud bo'lib, bu investitsiyalarning rag'batlantirish yoki jarima qilish vositasi hisoblanadi.

Xitoyda jismoniy shaxslar uchun soliqqa tortish tizimi ancha murakkab va bir necha turdagi soliqlarni o'z ichiga oladi. Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq - bu shaxsiy daromad solig'i hisoblanadi. 2019 yilda Xitoyda o'tkazilgan soliq islohotlari natijasida shaxsiy daromad solig'ini undirish tartibiga ham qator o'zgartirishlar kiritildi.

Xitoyda shaxsiy daromad solig'i progressiv shkala bo'yicha undiriladi. Bu daromadlarga ish haqi, biznes daromadlari, investitsiyalardan olinadigan foizlar, ijara to'lovlari va boshqa manbalar kiradi.

Jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i stavkalari turlicha bo'lishi mumkin, lekin ular odatda bir necha darajadan iborat. Misol uchun, soliq past daromadlar uchun nol foizdan boshlanib, yuqori daromadlar uchun asta-sekin yuqori stavkalarga ko'tarilishi mumkin.

Ish haqi yoki boshqa daromadlarni to'laydigan tashkilotlar ish haqi daromadlaridan soliqni ushlab qolib, soliq organlariga o'tkazishlari shart. Bundan tashqari, jismoniy shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq deklaratsiyasini topshirib, soliqlarni to'lashlari zarur.

Shuningdek, Xitoyda jismoniy shaxslarning daromadlariga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan turli soliq imtiyozlari va chegirmalar mavjud. Misol uchun, ta'lim yoki tibbiy xarajatlar soliqdan chegirilishi mumkin.

Xitoyda shaxsiy daromad solig'i soliq qonunchiligiga muvofiq undiriladi va bir nechta toifalarni o'z ichiga oladi. Asosiy turlariga shaxsiy daromad solig'i, biznes daromad solig'i va ijtimoiy soliqlar kiradi.

Xitoyda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining byudjet daromadlaridagi ulushi barqaror o'sib borgan. Bu soliq to'lovchilarning daromadlari ortishi va davlatning soliq siyosatining samaradorligidan dalolat beradi. 2022 yildagi kichik pasayishdan tashqari, umumiy tendensiya ijobiy va barqaror o'sishni ko'rsatadi. Bu, o'z navbatida, davlat byudjetining daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga yordam beradi.

Xitoyda Jismoniy shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliq stavkalari daromad darajasiga qarab farq qilishi mumkin. Odatda progressiv soliq taqvimi mavjud bo'lib, unda daromad oshgani sayin soliq stavkasi ham oshadi. Har xil turdagi daromadlar (masalan, ish haqi, depozitlar bo'yicha foizlar, kapital o'sishi) har xil soliq stavkalariga tortilishi mumkin. Ish beruvchilar, odatda, shaxsiy daromad solig'ini bevosita o'z xodimlarining ish haqidan ushlab, soliq organlariga o'tkazadilar.

Tadbirkorning daromad solig'i korxona va tashkilotlarning foydasidan undiriladi. Soliq stavkalari biznes turiga va uning joylashgan joyiga qarab farq qilishi mumkin.

Bundan tashqari, Xitoyda ijtimoiy sug'urta va tibbiyot tizimini moliyalashtirish uchun ish beruvchi va xodimlardan olinadigan ijtimoiy soliqlar ham mavjud.

Xitoyning har bir mintaqasida o'z soliq qoidalari va soliq stavkalari ham bo'lishi mumkin, shuning uchun ma'lum bir mintaqada soliq tizimini tahlil qilishda mahalliy qoidalarni hisobga olish muhim hisoblanadi.

Xitoy soliq tizimi juda murakkab va bir qancha omillarga, jumladan, faoliyat yuritayotgan joyi, daromad turi va rezidentlik holatiga bog'liqdir. Xitoyda shaxsiy daromad solig'ini undirish mexanizmining asosiy jihatlari bilan quyidagi ma'lumotlar orqali tanishish mumkin:

4-jadval

Xitoyda shaxsiy daromad solig'ini undirish mexanizmi

Soliq turi	Hisoblash usuli va soliq stavkalari	Soliq to'lovchilari
Shaxsiy daromad solig'i	Progressiv soliq stavkasi qo'llaniladi: 3% (0 - 36,000 yuan) 10% (36,000.01 - 144,000 yuan) 20% (144,000.01 - 300,000 yuan) 25% (300,000.01 - 420,000 yuan) 30% (420,000.01 - 660,000 yuan) 35% (660,000.01 - 960,000 yuan) 45% (960,000.01 va undan yuqori)	Jismoniy shaxslar
Soliqqa tortiladigan daromad	Oylik daromaddan belgilangan chegirmalarni qo'llash ruhsat etilgan.	Umumiy daromaddan belgilangan
Chegirmalar	Turar joy, ta'lim, tibbiy xizmatlar uchun chegirmalar mavjud. Turar joy uchun - 1200 yuan, ta'lim uchun - 1000 yuan, tibbiy xizmatlar uchun - 2000 yuan.	Turli xil sarf-xarajatlar
Soliqni hisoblash usuli	Har oy va yil yakunida hisob-kitob amalga oshiriladi.	Mehnat shartnomasi asosida
Soliq to'lash muddati	Har oylik va yillik hisobotlar topshiriladi.	Oylik va yillik deklaratsiyalar

Manba: jadval mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Mazkur jadval ma'lumotlarida Xitoyda shaxsiy daromad solig'ini iqtisodiy ahamiyati va undirish mexanizmi keltirilgan. Shaxsiy daromad solig'i – bu davlat byudjeti uchun asosiy daromad manbai bo'lib, undan fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun foydalaniladi. Bu soliq turi iqtisodiy samaradorlikka katta ta'sir ko'rsatadi, chunki u fuqarolarning daromadlaridan olinadi va turli xil sarf-xarajatlar bilan bog'liq chegirmalarni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy daromad solig'i iqtisodiy ahamiyatini quyidagi jihatlardan kelib chiqqan holda belgilash mumkin:

- Shaxsiy daromad solig'i davlat byudjetiga asosiy hissani qo'shadi, bu esa hukumatga ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish imkonini beradi.

- Progressiv stavka tizimi orqali soliq yuki adolatli taqsimlanadi, bu esa jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Progressiv stavka ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi, chunki u yuqori daromadli shaxslardan ko'proq soliq olish orqali jamiyatdagi kam daromadli toifalarga yordam beradi. Davlat olingan soliq mablag'larini ijtimoiy va iqtisodiy dasturlarga sarflaydi, bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi.

- Shaxsiy daromad solig'i bo'yicha chegirmalar jismoniy shaxslarning turli xil sarf-xarajatlarini inobatga olish orqali soliq yukini yengillashtiradi. Chegirmalar orqali fuqarolarning daromadlaridan soliq to'lovlari kamayadi, bu esa ularning soliq yukini yengillashtiradi.

- Shaxsiy daromad solig'i har oy va yil yakunida hisoblanishi orqali soliq to'lovlari aniq va o'z vaqtida amalga oshiriladi. Soliq to'lovchilar o'z daromadlari va sarf-xarajatlarini rejalashtirish orqali moliyaviy ahvollarini yaxshilash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shaxsiy daromad solig'i davlat iqtisodiyotining barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Progressiv soliq stavkasi va chegirmalar tizimi orqali jamiyatda ijtimoiy adolat ta'minlanadi. Soliq to'lovlari va hisobot berish tizimi soliq to'lovchilarning mas'uliyatini oshiradi va iqtisodiy faoliyatni rag'batlantiradi. Shu sababli, shaxsiy daromad solig'ining samarali boshqarilishi mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlil natijalari ko'rsatadiki, Xitoyning shaxsiy daromad solig'ini undirish mexanizmi turli xil soliq stavkalari, imtiyozlar va to'lov tartiblariga ega bo'lgan murakkab tizim bo'lib, soliq to'lovchilar tomonidan ehtiyotkorlik va rioya qilishni talab qiladi. Xitoy hukumati tomonidan olib borilayotgan soliq islohotlari adolatni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun soliq tizimini yanada shaffof va samarali qilishga qaratilgandir.

Xulosa va takliflar.

Yuqorida keltirilgan xorijiy mamlakatlarning tajribalarining O'zbekistonda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishda tizimida qo'llashning ijobiy jihatlari sifatida quyidagilarni keltirish mumkindir:

1. AQShda jismoniy shaxslarning daromadlariga soliq solish progressiv shkala bo'yicha amalga oshiriladi, ya'ni daromad oshgan sari soliq stavkasi ham oshadi. Xitoyda ham yuqori daromadli shaxslardan ko'proq soliq olinadi. Bu yondashuv soliq yukini adolatli taqsimlashga yordam beradi va davlat byudjetiga yuqori daromadli shaxslardan ko'proq tushum keltirishga imkon beradi. Progressiv soliq shkalasini joriy etish soliq yukini adolatli taqsimlashga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, kam daromadli shaxslar uchun moliyaviy yukni yengillatadi va davlat byudjetiga ko'proq tushum keltiradi.

2. AQShda soliq tizimi ko'p bosqichli bo'lib, federal, shtat va mahalliy soliqlarni o'z ichiga oladi. Bu mintaqaviy xususiyatlarni va ehtiyojlarni hisobga olishga hamda soliqlarni boshqarishni markazlashtirishga imkon beradi. Mamlakatda mintaqaviy soliqlar joriy etilishi, har bir hududning o'ziga xos ehtiyojlarini hisobga olgan holda soliqlar belgilash va boshqarish imkonini yaratib, soliqqa tortishning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

3. AQShda soliq to'lovchilar turli imtiyozlar va chegirmalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu ularning soliq majburiyatlarini kamaytiradi. Masalan, bolalar uchun imtiyozlar, ta'lim uchun soliq kreditlari va boshqa chegirmalar. Bu chora-tadbirlar oilalarning soliq yukini yengillatishga va muayyan xarajatlarni rag'batlantirishga yordam beradi.

4. Xitoyda ish beruvchilar tomonidan xodimlarning maoshidan soliq to'g'ridan-to'g'ri ushlab qolinadi. Bu soliqlarning o'z vaqtida va barqaror yig'ilishini ta'minlaydi hamda soliq to'lovchilarning qonunga rioya qilish darajasini oshiradi.

5. AQShda investitsiyalardan olinadigan daromadlar, masalan, qimmatli qog'ozlar va ko'chmas mulk sotishdan olinadigan daromadlar soliqqa tortiladi. Soliq stavkalari aktivlarni saqlash muddatiga va daromad darajasiga qarab o'zgaradi. O'zbekistonda kapital daromadlarini soliqqa tortish joriy etilishi uzoq muddatli investitsiyalarni rag'batlantirishga va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

AQSh va Xitoyning jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tajribasining ushbu ijobiy jihatlari O'zbekistonda soliq amaliyotini yaxshilash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun qo'llanilishi mumkin. Bu yondashuvlar soliq tizimini adolatli, samarali va ochiq qilishga yordam beradi.

Adabiyotlar/Алмепамыпа/References:

Masgreyv R. A. (1989) *Public Finance in Theory and Practice*. – 5-nashr. – Nyu-York: McGraw-Hill, – 672 b.

Stiglis J. Ye. (2000) *Economics of the Public Sector*. – 3-nashr. – Nyu-York: W. W. Norton & Company, – 848 b.

OECD. (2022) *Taxing Wages 2022–2023*. – Paris: OECD Publishing, – 420 p. – <https://doi.org/10.1787/20744287>

IRS (2024) Internal Revenue Service (IRS). *Federal Income Tax Rates and Tax Benefits for 2024*. – Washington D.C.: U.S. Department of the Treasury, – Режум досмyna: <https://www.irs.gov>

State Taxation Administration of China. (2019) *Individual Income Tax Reform Overview*. – Beijing: Ministry of Finance of the People's Republic of China, 2019. – 56 p.

Qo'chqorov Sh. J., Ibrohimov H. (2020) *O'zbekistonda soliq siyosati va uni takomillashtirish yo'llari*. – T.: "Iqtisod", – 216 b.